




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

Dastlabki ma'lumotlar

yanvar - iyun 2019 yil


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar - iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmi 3741,4 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 3552,0 mlrd.so'mni (103,3 foiz), o'rmon xo'jaligida 141,7 mlrd.so'mni, (102,3 foiz), baliq xo'jaligida 47,7 mlrd.so'mni (90,2 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Zarafshon shahri (107,6 foiz), Nurota (106,0 foiz), Konimex (104,0 foiz), Tomdi (103,7 foiz), Karmana (103,5 foiz), Navbahor (103,3 foiz), Uchquduq (103,3 foiz) hamda Xatirchi (102,6 foiz) tumanlarida kuzatildi, Qiziltepa (101,9 foiz), Navoiy shahrida esa (94,4 foiz) aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmida Xatirchi tumanining ulushi (30,2 foizni) tashkil etdi va hududlar bo`yicha etakchilik qilmoqda, xuddi shunday, Qiziltepa tumani (18,5 foiz),Navbaxor tumani (16,1 foiz), Karmana tumani (13,9 foiz),Nurota tumani (7,9 foiz), Konimex tumani (5,1 foiz), Tomdi tumani (4,0 foiz), Uchquduq tumani (2,9 foiz), ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Navoiy va Zarafshon shaharlarida (0,8 va 0,6 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 103,6 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 105,4 foizni, chorvachilik mahsulotlari 102,9 foizni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 82,2 foizi - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 14,0 foizi -fermer xo'jaliklariga, 3,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik


2019 yilning yanvar - iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1001,9 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 105,4 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 28,2 fozni tashkil qildi.




Hosilni yig'ib olish. 2019 yilning yanvar - iyun oylarida 170,2 ming tonna (101,1 foiz) don, 53,1 ming tonna (103,8 foiz) kartoshka, 61,2 ming tonna (107,5 foiz) sabzavotlar, 7,4 ming tonna (102,5 foiz) poliz, 40,1 ming tonna (108,8 foiz) mevalar, 1,4 ming tonna (128,1 foiz) uzum yig'ib olindi.

Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini hududlar kesimida taqsimlanishi


Don jami (tonna)




Kartoshka (tonna)




Sabzavotlar (tonna)




Poliz (tonna)




Meva (tonna)



Uzum (tonna)



Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi




Chorvachilik



2019 yilning yanvar - iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2546,1 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,9 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 71,8 foizni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 70,7 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar - iyun oyiga nisbatan 2,8 foizga ko'p), 204,4 ming tonna sut (3,7 foizga ko'p), 171,6 mln.dona tuxum (9,8 foizga ko'p), 2,3 ming tonna jun (10,0 foizga ko'p), 254,5 ming dona qorako'l teri (11,3 foizga ko'p), 0,4 ming tonna asal (7,6 foizga ko'p) 0,9 ming tonna pilla (7,6 foizga ko'p) hamda 3,7 ming tonna baliq (86,8 foiz) ni tashkil etdi.


Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi



Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 91,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 94,0 foizi, tuxumning 76,3 foizi, qorako'l terining 79,6 foizi, ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini hududlar kesimida taqsimlanishi


Go'sht (ming tonna)



Sut (ming tonna)



Tuxum (mln.dona)



Jun (tonna)



Qorako'iteri (mingdona)



Baliq (tonna)



Asal (tonna)



Pilla (tonna)





Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni


2019 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni -467,8 ming boshga, shu jumladan sigirlar 199,2 ming boshga, qo'y va echkilar 2228,9 ming boshga, otlar 19,7 ming boshga, parrandalar 2717,6 ming boshga yetdi.


2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 13,2 ming boshga (2,9 foizga), shu jumladan sigirlar 3,9 ming boshga (2,0 foizga), qo'y va echkilar 104 ming boshga (4,9 foizga), otlar 317 ming boshga (1,6 foizga), parrandalar 469,3 ming boshga (20,9 foizga) ko'paydi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



 Fermer xo'jaliklari

 Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

 Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2019 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,6 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 2,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 24,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 62,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 12,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 33,8 foizi fermer xo'jaliklariga, 60,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, xuddi shuningdek parrandalar umumiy sonidan 8,0 foizi fermer xo'jaliklariga, 71,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 20,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi

0 371 230-84-43

0 371 230-84-44

0 436 223-23-40